

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARI MUSIQA DARSIDA BOLALAR
FOLKLOR QO'SHIQLARINI O'RGATISHNING MAVJUD HOLATI

Abulov To'liqin Mo'minovich

Qahqadsaryo viloyati Qarishi shaxar

1-son Bolalar musiqa va san'at maktabi

musiqa nazariyasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Bugungi kunda musiqa folklori namunalari maktab o'quv dasturlaridan qay darajada o'rin olgan, degan savolga javob izlash zaruriyati. Boshlang'ich sinf musiqa madaniyati darslari o'quvchilarga axloqiy–estetik tarbiya berishda muhim vositasi. Musiqa ta'limi jarayonida o'quvchilar milliy musiqa durdonalari, folklor qo'shiqlari bilan bir qatorda, jahon xalqlari musiqa madaniyati namunalaridan ham bahramand etish.

Kalit so'zlar: musiqa, folklor namunalari, maktab, o'quv, musiqa darslari, o'quvchilar, estetik tarbiya, bolalar folklor qo'shiqlari, zamonaviy kompozitorlar.

Аннотация: В наши дни возникает необходимость ответить на вопрос, в какой степени образцы музыкального фольклора занимают место в школьных учебных программах. Уроки музыкальной культуры в начальных классах являются важным средством нравственно-эстетического воспитания учащихся. В процессе музыкального образования ученики должны знакомиться не только с национальными музыкальными шедеврами и фольклорными песнями, но и с образцами музыкальной культуры народов мира.

Ключевые слова: музыка, образцы фольклора, школа, учебная программа, уроки музыки, учащиеся, эстетическое воспитание, детские фольклорные песни, современные композиторы

.Annotation: Today, it is important to address the question of to what extent samples of musical folklore are included in school curricula. Music culture lessons in primary school serve as an important tool for providing students with moral and aesthetic education. In the process of music education, students should be introduced not only to national musical masterpieces and folklore songs, but also to examples of the musical culture of world nations.

Keywords: music, folklore samples, school, curriculum, music lessons, students, aesthetic education, children's folklore songs, contemporary composers.

Kirish. Mamlakatimizda ma'naviy meros, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga e'tibor kuchayib, o'sib kelayotgan yosh avlodni shu qadriyatlar ruhida har tomonlama yetuk, ma'naviy yuksak, komil inson qilib tarbiyalash pedagogika fani oldiga turgan muhim vazifalardan biriga aylandi. Shunga ko'ra bolalar musiqa merosi va uning yetuk namoyondalari hayoti, ijodiy faoliyati, umumiy o'rta ta'lim maktablarida Buxoro bolalar folklor qo'shiqlarini o'rgatish ta'lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz" deb da'vat etadi. Yoshlarni mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lishida ajdodlarimiz an'analari, bebaho qadriyatlari va madaniyati, ma'naviy-axloqiy fazilatlarini, milliy-musiqiy merosi, xususan, xalq qo'shiqlari alohida o'rin tutadi. Bu borada umumiy o'rta ta'lim maktablarining musiqa darslarida bolalar folklor qo'shiqlarini o'rgatish metodikasini takomillashtirish, ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda musiqa folklori namunalari maktab o'quv dasturlaridan qay darajada o'rin olgan, degan savolga javob izlash zaruriyati vujudga kelmoqda. Boshlang'ich sinf musiqa madaniyati darslari o'quvchilarga axloqiy–estetik tarbiya berishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Musiqa ta'limi jarayonida o'quvchilar milliy musiqa durdonalari, folklor qo'shiqlari bilan bir qatorda, jahon xalqlari musiqa madaniyati namunalaridan ham bahramand bo'ladilar.

Ushbu paragrafda musiqa madaniyati darslarida bolalar musiqa folklori namunalarini o'rgatish asosida o'quvchilarga ma'naviy-axloqiy, estetik tarbiya berish muammosining maktab amaliyotidagi ahvolini tahlil etishga harakat qildik. Musiqa madaniyati darslarida bolalar folklor qo'shiqlarini o'rgatishda o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy, estetik tarbiyalashga, maktab o'qituvchilarining ma'naviy-axloqiy va estetik tarbiyaga oid fikr va mulohazalarini aniqlash hamda umumlashtirishga intildik.

Birinchi navbatda, musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarni estetik tarbiyalashning real holatini va o'qituvchilarning o'z fikrlarini o'zaro qiyoslab, estetik tarbiyaning mavjud holatini aniqlashga harakat qildik. Musiqa madaniyati darslarida Buxoro bolalar folklor qo'shiqlarini o'rgatish asosida o'quvchilarni estetik tarbiyalash bo'yicha mavjud tajribalarni o'rganish va umumlashtirish maqsadida, ilg'or o'qituvchilarning darslari kuzatilib, magnit tasmasi va video tasvirga yozib olishni

rejalashtirdik. Darslarni kuzatish va holatlarni o‘rganish jarayonida esa quyidagi savol va muammolarga aniqlik kiritish maqsadini qo‘ydik:

a) musiqa darslarida o‘quvchilarni estetik tarbiyalash uchun qanday savol va topshiriqlar beriladi?. Estetik tarbiya berishning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?;

b) musiqa madaniyati ta’limi mazmuni bilan bog‘liq savollar–musiqa madaniyati darsligiga kiritilgan milliy musiqa namunalaridan biri bo‘lgan bolalar folklor qo‘shiqlarining o‘rni;

v) estetik tarbiya jarayonining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiladigan savollar–dars turi, o‘quvchilarning real o‘quv imkoniyatlariga mosligi, ishlash tempi bilan bog‘liqligi, estetik tarbiyalashda foydalanadigan usullar va h.k.

Darslarni kuzatish va tahlil etishda musiqa madaniyati o‘quv predmetining xususiyatidan kelib chiqib, dars tiplarini tasniflashga harakat qildik.

Musiqa madaniyati o‘quv predmeti aralash dars tipini qo‘llash uchun muvofiq kelishi, unda darsning umumiy mavzusiga bo‘ysunuvchi va o‘zaro mantiqan bog‘lanuvchi: musiqa idroki (tinglash), kuylash, musiqa savodi, raqs va ritmik xarakterlar, chapak va cholg‘u asboblari chalish hamda musiqa ijodkorligi kabi musiqa faoliyatlariga amal qilinadi. Shunday qilib, bolalar folklor qo‘shiqlarining boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini estetik tarbiyalashdagi mavjud holati va o‘rin, ahamiyati hamda muammolarni aniqlash ishlariga kirishildi.

Jumladan, musiqa madaniyati darslarida Buxoro bolalar folklor qo‘shiqlarini o‘rgatish asosida o‘quvchilarni estetik tarbiyalash bo‘yicha mavjud tajribalar o‘rganildi va umumlashtirildi. Ilg‘or o‘qituvchilarning darslari kuzatilib, magnit tasmasi va video tasvirga yozib olindi. Darslarni kuzatish va qayd etish jarayonida musiqa darslarida o‘quvchilarni estetik tarbiyalash bo‘yicha savol va topshiriqlar amalga oshirildi. Shuningdek, estetik tarbiya berishning maqsad va vazifalari nimalardan iborat? Musiqa madaniyati darsligida Buxoro bolalar folklor qo‘shiqlarining o‘rni qay darajada ifodalangan? Estetik tarbiya jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat? kabi savollarga javoblar olindi.

Dastlabki natija: musiqiy an’anasi o‘zining ko‘p qirraliligi, janrlarga boyligi, jozibadorligi, o‘ynoqiligi, dunyoning boshqa o‘lkalarida uchramaydigan o‘ziga xos musiqiy ohanglari bilan ajralib turishiga yana bir bor ishonch hosil qilindi. So‘rovnomada esa 95 nafar oliy ma’lumotli musiqa o‘qituvchisi ishtirok etdi.

O'tkazilgan so'rovnoma tahlil qilinganda musiqa o'qituvchilari Buxoro bolalar folklor qo'shiqlari vositasida o'quvchilarni estetik tarbiyalash bo'yicha sayoz tasavvurga egaligi aniqlandi. Aksariyat o'qituvchilar darslarda bolalar folklor qo'shiqlaridan foydalangan holda o'quvchilarni estetik tarbiyalashda nimalarga e'tibor qaratish lozim? degan savolga javob berishga qiynalganlari ayon bo'ldi.

Tadqiqot davomida olib borgan kuzatishlarimizdan ma'lum bo'ldiki, musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarni estetik tarbiyalashga ta'sir qiladigan hamda o'qituvchilarning faoliyatida uchraydigan qiyinchiliklarni to'rt guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhda o'qituvchilar va o'quvchilarning estetik tarbiya mohiyati, vositalari, milliy musiqa va bolalar folklor qo'shiqlari o'rtasidagi farqlarni ajrata olmasliklari, ikkinchi guruhda musiqani idrok etish, qo'shiq kuylay olish, cholg'u asboblari kuy ijro etish, musiqa ijodkorligi bilan shug'ullanish qobiliyatiga ega bo'lmagan, uchinchi guruhda esa folklor qo'shiqlaridagi rang-baranglik, ta'sirchanlik, jozibadorlikni farqlamaslik, ularni tinglay va kuylayolmasligi, to'rtinchi guruhda bolalar folklor qo'shiqlarining ijrosi va raqs harakatlari bo'yicha bilimga ega emasligi aniqlandi.

Ma'lumki, Davlat ta'lim standarti ommaviy xalq musiqa pedagogikasi, professional musiqa ijodkorlari, musiqa ijrochilari, katta ashulachilar, maqomchilar, dostonchilar asarlarining elementar asoslarini o'rgatishni meyorlashtiradi. Musiqa madaniyati ta'limining mazmuni yosh avlodni milliy musiqa merosimizga vorislik qila oladigan, umumbashariy musiqa boyligini idrok eta oladigan madaniyatli inson darajasida voyaga yetkazishni nazarda tutadi. Bunda o'quvchilar musiqa san'atini butun estetikasi bilan o'rganishlari, ommaviy musiqa faoliyatlari; musiqani badiiy idrok etish, yakka va jamoa bo'lib qo'shiq kuylash, raqsga tushish va ijodkorlik malakalarini shakllantirish asosiy maqsad hisoblanadi. Musiqa madaniyati o'quv predmetining mazmuniga bo'lgan talablar nazariy va amaliy faoliyatlar majmuasidan tashkil topib, ular quyidagi mavzularni belgilaydi:

- musiqa tinglash;
- jamoa bo'lib kuylash;
- musiqa savodxonligi;
- musiqa ijodkorligi

Musiqa tinglash va kuylash ta'lim mazmunining asosini tashkil etadi. Ularni kuylash, tinglash faoliyatlari vositasida o'rganish bilan bir qatorda cholg'uchilik, musiqali

harakatlar, ijodkorlik faoliyatlari, bilan har tomonlama o'rganish va o'zlashtirish, musiqiy tavsiflarni ifodalash imkoniyati yaratiladi. Ishimiz yuzasidan olib borgan kuzatishlarimizdan ayon bo'ldiki, hozirgi paytda amaliyotda qo'llanib kelinayotgan boshlang'ich sinf musiqa madaniyati darsliklari va dasturida Buxoro bolalar folklor qo'shiqlarini o'rganishga nihoyatda kam vaqt ajratilganligining guvohi bo'ldik. Jumladan, DTSda ham o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning nazariy asoslariga ko'p e'tibor berilgan-u, amaliy jihatdan o'rganish hamda tahlilga kam vaqt ajratilgan. O'quvchilar egallashi lozim bo'lgan ko'nikma va malakalar:

- xalq va ustozona klassik musiqani shakl, mazmun, badiiy barkamollik va ijro mahoratiga qarab ajratish;
- zamonaviy milliy musiqada klassikaga xos badiiy yuksaklik;
- ritm va usulni farqlay olish;
- qo'shiqlarning so'z ma'nolarini jarangdor va ifodali kuylash va hk.

Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi tahliliga e'tibor beradigan bo'lsak, musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarga musiqa folklori bo'yicha nihoyatda kam bilim berilishini kuzatamiz. Musiqa darslarida bolalar folklor qo'shiqlari namunalari ko'p asrlik ma'naviyati, milliy qadriyatlarini, hayotiy udumlari yetarli darajada o'z ifodasini topmagan. Bizningcha, maktab darsliklariga milliy merosimiz namunalari hamda xalq qo'shiqlari, folklor namunalari ko'proq kiritilsa, yoshlarimizning ma'naviy, axloqiy hamda estetik tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarni estetik tarbiyalashga oid musiqa o'qituvchilari bilan ham so'rovnoma o'tkazdik. So'rovnomada bo'lajak musiqa o'qituvchilarining darslarda o'quvchilarni estetik tarbiyalash imkoniyatlari hamda bu sohadagi bilim va mahoratlari darajalarini aniqlash maqsadi qo'yildi va quyidagi savolarni o'z ichiga oldi:

1. "Estetik tarbiya" deganda nimani tushunasiz?
2. Sizning bolalar folklor qo'shiqlari to'g'risida fikringiz va unga munosabatingiz?
3. Bolalar folklor qo'shiqlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari nimadan iborat?
4. Bolalar folklor qo'shiqlarining o'quvchilarni estetik tarbiyalashdagi o'ziga xosligi nimada deb o'ylaysiz?

5. Bo'lajak pedagog sifatida bolalar folklor qo'shiqlari o'quvchilarning estetik tarbiyasiga ta'sirini qanday tushunasiz? kabi savollar berildi.

“Estetik tarbiya” deganda nimani tushunasiz? degan mazmundagi savolga talabalar “Bu-go'zallikka intilish”, “Go'zal narsalardan zavqlanish” nitushunaman. “Bu odamning tarbiyaliligi, odobliligi, umuman yaxshi tomonlari. Atrofdagi kishilar bilan axloqiy go'zal munosabatda bo'lish” tarzida javob qaytarganlar.

O'quvchilar tomonidan olingan javoblar tahlili ularda bolalar folklor qo'shiqlari vositasida estetik tarbiyalash haqidagi bilimlari yetarli darajada emasligini ko'rsatdi. Buxoro bolalar folklor qo'shiqlari vositasida tarbiyalash va unga qiziquvchilar soni ozchilikni (35%) ni tashkil etdi.

Musiqqa o'qituvchilari tomonidan berilgan javoblar tahlili shuni ko'rsatdiki, ular mavsum marosim hamda mehnat qo'shiqlarning mohiyatini to'g'ri tushunishi oydinlashdi. Biroq bu bilim muayyan tushuncha tasavvur shaklida mavjud. Chunki so'rovnomada qatnashgan o'quvchilarning 80% Buxoro bolalar folklor qo'shiqlari namunalari, xususan, ovutmachoq, erkalama qo'shiqlarini ijro eta olmasliklari, 12% i ijro etishda qiynalishi, 8% igina bir necha folklor qo'shiqlarini bemalol ijro qila olishga qodirliklarini bildirdilar. Shuningdek, folklor qo'shiqlarining o'quvchilarni estetik tarbiyalashda alohida o'rni mavjudligi, ularning estetik didi, madaniyatini shakllantirishda muhim vosita ekanligini alohida qayd qildilar.

“Bo'lajak pedagog sifatida bolalar folklor qo'shiqlari o'quvchilarning estetik tarbiyasiga ta'sirini qanday tushunasiz ” degan savolga: musiqqa folklori o'quvchilarni estetik tarbiyalashda ta'siri juda katta. Folklor qo'shiqlari o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantiradi”, “O'quvchilarni ma'naviy yetuklikka yo'llaydi”, “Zamonaviy qo'shiqlarga nisbatan folklor qo'shiqlari bola tarbiyasiga kuchli ta'sir qiladi, buning boisi ushbu qo'shiqlarda mardlik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, sadoqatlilikning yuqori darajada ifodalanishidadir” kabi javoblar olindi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinf musiqqa madaniyati predmeti tarkibida Bolalar folklor qo'shiqlari namunalari ko'proq singdirish haqidagi savolga talabalar: “Darslikda bolalar folklor qo'shiqlaridan ko'proq berilishi maqsadga muvofiq”, “Zamonaviy qo'shiqlar bilan birga Buxoro bolalar folklor qo'shiqlari namunalari berilsa o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatar edi”, “O'quvchilarni tarbiyalashda pedagogika hamda Musiqqa fanlarining uyg'unligiga alohida e'tibor berish zarur”, “Musiqqa darslarida o'quvchilar estetik tarbiyalanadi” kabi fikrlarni bayon etdilar. Bu savolga 70–75% talabalar darsliklarga bolalar folklor

qo'shiqlaridan namunalar ko'proq kiritilishini ma'qullashlari, bu yo'nalishni yanada rivojlantirish kerakligi xususidagi javoblarni berishgan. O'tkazilgan so'rovlar, o'qituvchilar va talabalar bilan olib borilgan suhbatlar, anketa savollariga javoblarning tahlili quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini berdi:

1. Musiqa madaniyati darslarida bolalar folklor qo'shiqlaridan foydalanish jarayonida o'quvchilarni estetik tarbiyalashda folklor qo'shiqlarining o'rganishga alohida vaqt ajratish lozim.
2. Musiqa madaniyati fani o'qituvchilariga bolalar folklor qo'shiqlarining ijrosi bo'yicha kurslar tashkil qilib, nazariy jihatdan ularning bilimlarini takomillashtirish zarurati vujudga kelmoqda.
3. Musiqa o'qituvchilarini tayyorlash tizimiga bolalar folklor qo'shiqlari vositasida o'quvchilarni estetik tarbiyalashga oid amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish yo'llari, usul va metodlari ishlab chiqilib, tavsiya qilinishi kerak.
4. O'quvchilarni estetik tarbiyalashda musiqa madaniyati o'quv predmetining ahamiyatini alohida ko'rsatib o'tgan holda bolalar folklor qo'shiqlarini o'rganish tizimi ishlab chiqilib, amaliyotga joriy qilinishi kerak. Maktablarda ularni keng o'rganish amaliyoti tatbiq etilishi lozim.
5. Musiqa madaniyati o'quv fani uchun tuziladigan dastur va darsliklarda Buxoro bolalar folklor qo'shiqlari namunalariga alohida soatlar va bo'limlar ajratish maqsadga muvofiqdir.

Umumta'lim maktablarida hozirgi kundagi musiqa darslarini mavjud holatini kuzatish va tahlil qilish natijalaridan shu narsa ma'lum bo'ldiki, musiqa madaniyati fani o'quv dasturlariga kiritilgan xalq musiqasi namunalari, shu jumladan bolalar folklor qo'shiqlarini tinglash, o'rganish, kuylash, ular haqida to'g'ri tasavvur va tushuncha hosil qilish imkonini beruvchi ma'lumotlar borasida kamchiliklar mavjud. Bu o'rinda birinchi galda xalq kuylari, qo'shiqlari, ashulalari, folklor aytimlari, jumladan bolalar folklor qo'shiqlari haqida zarur o'quv-uslubiy manbalarni yetishmasligi yoki yo'qligi sabab bo'lmoqda.

Zamonaviy kompozitorlarimizning bolalarga atab yaratayotgan asarlari jamlangan to'plamlar ehtiyojni qondiradigan darajada nashr qilinmoqda. Lekin xalq musiqasi ijodiyoti namunalari bo'yicha alohida to'plamlarni, uslubiy qo'llanmalarni barcha maktablarda ham topish mumkin bo'lmaydi. Shu o'rinda musiqa o'qituvchilarining ham yetarlicha tashabbus ko'rsatishmayotganligi yoki xalq musiqasi bo'yicha zarur

bilim va malakaviy tayyorgarlikka ega emasliklari ham o'z ta'sirini ko'rsatayotganligidan ko'z yumib bo'lmaydi. Bu holat umumta'lim maktablaridagi ko'plab musiqa o'qituvchilarinig musiqa fani o'quv dasturlaridan o'rin olgan xalq kuylari, qo'shiqlari, folklor aytimlarini "chetlab o'tish"ga sabab bo'lmoqda yoki ularni shunchaki ko'rsatish bilan cheklanib qolishiga olib kelmoqda.

Xulosa Bugungi kunga qadar o'quvchi-yoshlarga estetik tarbiya berishga bag'ishlangan ko'plab tadqiqot ishlari yaratilganligiga guvoh bo'ldik. Bularda, asosan, estetik tarbiya berish asosida ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish muammosi tadqiq qilingan. Biroq, umumiy o'rta ta'lim maktablari musiqa darsida bolalar folklor qo'shiqlarini o'quvchilarga o'rgatish o'z yechimini kutayotgan dolzarb metodik muammo ekanligi kuzatish va tahlillarimiz natijasida ayon bo'ldi. Mavzu yuzasidan olib borilgan ko'p yillik kuzatuvlarimiz shuni ko'rsatdiki, musiqa darslarida bolalar folklor qo'shiqlaridan o'quvchilarni tarbiyalashda muhim didaktik vosita sifatida foydalanilmay kelinayotganligi aniqlandi.

O'tkazilgan tadqiqot quyidagicha xulosalar chiqarish imkoniyatini berdi: bolalar folklor qo'shiqlarini o'rgatish milliy musiqiy an'analar bilan uyg'un tarzda amalga oshirish kerak.

Musiqa o'qituvchilari va oliy o'quv yurtlari musiqa ta'lim yo'nalishi talabalariga Buxoro bolalar folklor qo'shiqlari haqida nazariy ma'lumotlar berish tizimini rivojlantirish hamda bolalar folklor qo'shiqlari ijrochiligi sirlarini o'rgatish muhim vazifalardandir. O'quvchilarda bolalar folklor qo'shiqlari vositasida san'at va go'zallikka intilish, undan zavqlanish hissini tarkib toptirish muhim.

FOYDALANILGAN ADABIYIOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -Toshkent: O'zbekiston, 2016. - 56 B.
2. Rajabov, T. I., & Rajabov, J. I. (2022). The Formation of Spiritual and Moral Qualities of Students through Folk Songs is an Urgent Pedagogical Problem. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 2(1), 331-335.
3. Rajabov, T. I., & Oripov, N. O. (2022). Teaching Folklore Songs Bukhara Children in Continuous Education as a Dolzarb Methodological Problem. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 2(2), 409-412.

4. Rajabov, T. X. I., & Ibodov, O. R. (2021). O'zbek Xalq Musiqa Merosda O'quvchilarni Vatanparvalik Ruhida Tarbiyalash Vositasi. IJTIMOIIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIIY JURNALI, 1(6), 139-145.
5. Rajabov, T. I., & Boltaev, B. H. (2022, October). Al-Forobiy Va Ibn Sino Sharq Musiqiy Ta'limotida "Iyqoot" Usullari Nazariyasi Asoslarining Zamonaviy Tasnifi. In "ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 39-43).
6. Rajabov, T. (2022). UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA O 'ZBEK MUSIQA FOLKLORINI O 'RGATISH DOLZARAB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. IJODKOR O'QITUVCHI, 2(21), 21-31.
7. Rajabov, T. X. I., & Ibodov, O. R. (2021). O'zbek Xalq Musiqa Merosda O'quvchilarni Vatanparvalik Ruhida Tarbiyalash Vositasi. IJTIMOIIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIIY JURNALI, 1(6), 139-145.
8. Ражабов, Т. И. (2021). Ўқувчи-ёшларга ўзбек миллий мусиқа фольклори намуналари воситасида эстетик тарбия бериш. Science and Education, 2(11), 1094-1103.
9. Ражабов, Т. И. (2023). Совершенствование Механизма Духовно-Нравственного Формирования Учащихся Через Узбекские Народные Песни. Miasto Przyszłości, 33, 167-176.
10. Раджабов, Т. И. (2019). Описание вековых ценностей в песне "тутовое дерево-балх" и его место в воспитании учащейся молодежи. In Россия-Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные технологии: векторы развития (pp. 70-71).
11. Ражабов, Т. И. (2020). Педагогические возможности использования детских фольклорных песен в духовно-нравственном воспитании младших школьников. Вестник науки и образования, (5-2 (83)), 34-37.
12. Ражабов, Т. И. (2021). Усовершенствование научно-методических возможностей обучения бухарским детским фольклорным песням в средней общеобразовательной школе. Наука, техника и образование, (2-2 (77)), 84-86.
13. Ражабов, Т. И., & Ибодов, У. Р. (2020). Обеспечение национального наследия в обучении песням бухарского детского фольклора на уроках музыки. Вестник науки и образования, (21-2 (99)), 55-58.
14. Ражабов, Т. И. (2020). Типическая классификация узбекской детской народной музыки и игр. Наука, образование и культура, (3 (47)), 61-63.
15. Rajabov, T. I. (2023). Distinctive Features of Folk Songs that Serve in the Spiritual and Moral Formation of Bukhara Pupils. Pioneer: Journal of Advanced Research and Scientific Progress, 2(3), 59-68.

16. Rajabov, T. I., & qizi Safoeva, S. S. (2022). 5-7-SINF o‘quvchilarini xalq og‘zaki ijodi vositasida musiqaga qiziqishini takomillashtirish metodik muammo sifatida. barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali, 2(10), 392-400.
17. Ражабов, Т. И. (2022). Совершенствование Механизма Духовно-Нравственного Формирования Учащихся Через Народные Музыка И Песни. Miasto Przyszłości, 29, 363-367.
18. Ражабов, Т. (2023). О ‘zbek bolalar musiqiy o‘yin folklorining mavzuviy tasnifi. Общество и инновации, 4(5/S), 340-345.
19. Rajabov, T. I., & qizi Safoeva, S. S. (2022). MUSIQA MADANIYATI TA’LIMIDA MUSIQIY SAVODXONLIK FAOLIYATINING TUTGAN O‘RNI. TA’LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(10), 423-431.